

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshliji Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasash modellari.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili...	90
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремиологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алтишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 811.512.133'25
811.111'25

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI FE'LNING BO'LISHSIZLIK SHAKLINI YASOVCHI AYRIM VOSITALAR

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ НЕКОТОРЫХ СРЕДСТВ ОТРИЦАТЕЛЬНОЙ ФОРМЫ ГЛАГОЛА В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

ON SOME DERIVATIVE MEANS OF NEGATIVE FORMS OF THE VERB IN UZBEK AND ENGLISH

Sayidazimova Muhtaramxon Saidxoshimxon qizi

Farg'ona davlat universiteti amaliy ingliz tili kafedrası mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi dolzarb masalalardan bo'lgan *-ma* affiksi hamda ingliz tilidagi *not* inkor yuklamasi yordamida fe'ning bo'lishsizlik shaklini yasash usullari o'rganib chiqildi. Kundalik nutqimizda foydalaniladigan ushbu vositalar, ya'ni *-ma* affiksi va *not* inkor yuklamasi turli xil ma'nolarni ifodalaydi hamda ularning ma'no ifodalashiga ko'ra tilimizda turli kontekstlarda ishlatamiz. Ushbu holatlarni ochib berish uchun ular badiiy asarlardan olingan misollar orqali tahlil qilindi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются способы образования отрицательной формы глагола с помощью аффикса *-та*, играющего важную роль в узбекской грамматике, и английского отрицательного слова *not*. Эти языковые средства, используемые в повседневной речи, выражают различные значения и применяются в разных контекстах в зависимости от смысловой нагрузки. Их особенности проанализированы на примерах из художественных текстов.

Abstract

This article examines the methods of forming the negative form of verbs through the use of the *-ma* affix in Uzbek, a productive grammatical feature, and the English negative particle *not*. These markers, commonly used in everyday speech, convey various negative and contextual meanings and are applied differently depending on the context. Their usage is analyzed through examples taken from literary texts to illustrate the semantic and grammatical patterns of negation in both languages.

Kalit so'zlar: *negativ, -ma affiksi, so'z yasalishi, affiksatsiya, leksema, inkor ma'no, not inkor yuklama.*

Ключевые слова: отрицание, аффикс *-та*, отрицание *not*, словообразование, аффиксация, лексема, отрицательное значение.

Key words: *negative, -ma affix, not negation, word formation, affixation, lexeme, negative meaning.*

KIRISH

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida fe'lga xos asosiy kategoriyalardan biri bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi hisoblanadi. Har qanday fe'l bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda bo'lib, harakatning tasdiqini bo'lishli shakl, inkorini esa bo'lishsiz shakllar ifodalaydi, ingliz tilida ham fe'ning inkor va tasdiq shakllarini ifodalovchi bir qator lisoniy vositalar mavjud. Har ikki tilda fe'llarning tasdiq-inkor ma'nolarini anglatgan vositalar maxsus o'rganilgan. Ammo o'zbek va ingliz tillaridagi fe'llarning bo'lishli-bo'lishsizlik ifodasi yuzasidan alohida ishlar hali yetarli emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Respublikamizda tilshunoslikning mazkur sohasi, umuman, morfologiya sohasiga doir ayrim ilmiy izlanishlar yaratilgan. O'zbek tilidagi so'z turkumlariga xos tasdiq va inkor ko'rsatkichlarining muayyan jihatlari Sh.Shoaabdurahmonov, A.Hojiyev, J.Eltazarovlarning ishlarida [1;2;3], shuningdek, o'zbek va ingliz tilida fe'l, uning bo'lishsizlik shakllariga oid ayrim ma'lumotlar D.Ganiyevaning [6] dissertatsiyasida ilmiy tahlilga tortilgan. Mazkur ishlarda o'zbek va ingliz tillaridagi tasdiq-inkor kategoriyasini ifodalovchi birliklar til sathlari bo'yicha, o'zbek va ingliz tillaridagi affiksatsiya usuli bilan hosil qilinuvchi inkor kategoriyasini, shuningdek, o'zbek va ingliz

TILSHUNOSLIK

tillaridagi fe'ning bo'lishsizlik shaklini hosil qilish usullari tahlil qilinib, o'ziga xos jihatlari qiyosiy tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, o'zbek va ingliz tillarida bo'lishli shaklning maxsus grammatik ko'rsatkichi mavjud emas. Ammo bo'lishsizlik, ya'ni inkor ma'nosi esa maxsus vositalar yordamida ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilida ulardan biri *-ma* affiksi hisoblanadi, *-ma* affiksi shakldosh qo'shimcha bo'lib, ot yasovchi hamda sifat yasovchi qo'shimcha bo'lib ham keladi. Shu bilan birga, bu affiks fe'ning deyarli barcha shakllarida inkorni ifodalash uchun qo'llana oladi: *kelmayapti, kelmaydigan, kelmagan* kabi. Masalan:

U ko'p yillardan beri bunaqa shirin sut ichmagandi. ("Jimjitlik" S.A)

Bu shakl faqatgina maqsad ravishdoshi bilan qo'llanmaydi. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida bunga quyidagicha ta'rif beriladi: "... Lekin bundan maqsad ravishdoshi bildirgan harakat inkor etilmaydi degan xulosa chiqmaydi. Bu ravishdosh anglatgan harakat inkori ikki usulda ifodalanadi: 1. Asosiy fe'ning bo'lishsiz formasi orqali: *Ko'rgani kelmadi, bilgani keldi*; 2. *Emas* to'liqsiz fe'li orqali: *To'qqa o'ynagani emas, ish bilan chiqdik*"[2, 337].

-maslik affiksi yordamida harakat nomining bo'lishsiz shakli yasaladi: *kemaslik, gapirmaslik* kabi. Bu shakl tarkibida ham *-ma* elementi borligini ko'rishimiz mumkin.

Tulki qorda iz qoldirmaslik uchun dumi bilan izlarini supurib ketganidek, u ham biron joyda iz qoldirmasdi.

"Fe'l harakat belgisini bildiruvchi so'zlar bilan qo'llanganda, inkor ma'nosi faqat harakatning o'ziga emas, balki butun birikmaning mazmuniga tegishli bo'ladi: *O'rtoqlar, bu bosmachilarni osonlik bilan yengmadik.* (N.S.) Bu misolda umuman yengganlik emas, balki osonlik bilan yengganlik inkor etiladi."[2,338]

Askarlar rahbar tomonidan berilgan topshiriqni osonlik bilan bajaradilar.

Ushbu misoldan bilishimiz mumkinki, topshiriq osonlik bilan bajarilganligi inkor etilyapti.

Yetakchi + ko'makchi fe'ldan tashkil topgan birikuvlarda *-ma* affiksi uch xil tarzda qo'llanadi:

- 1) yetakchi fe'lga qo'shiladi: *yozmay tur*;
- 2) ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *yoza ko'rma*;
- 3) har ikkalasiga qo'shiladi: *yozmay qo'yma*.

Bunday birikuvlarda bo'lishsizlik ko'rsatkichining yetakchi yoki ko'makchi fe'lga qo'shilish-qo'shilmasligi ma'no talabi bilan bo'ladi. Masalan, *ko'rinmay qoldi, atamay qo'yishgan* birikuvlaridagi kabi *-ma* affiksi yetakchi fe'lga qo'shilsa, harakat (*kel, ayt, ishla* fe'llari bildirgan harakat) inkor etiladi, lekin ko'makchi (*qol, qo'y, ko'r* kabi) fe'llarga xos ma'no inkor etilmaydi. Bo'lishsizlik shakli ko'makchi fe'lga qo'shilsa, bu fe'l bildirgan ma'nodagi harakatning inkori ifodalanadi. Masalan, *o'ylab ko'rmagan edi* birikuvida tasodifiy, kutilmagan harakatning yuz bermaganligi ifodalanadi. Yana qiyoslang: *kelay qo'ydi – kelib qo'ymadi, kelay turdi – kelib turmadi* va hokazo.

Inkor shakli yetakchi va ko'makchi fe'lga qo'shilganda, alohida ta'kidlangan qat'iy tusdagi (bo'lishsizlik) ifodalanadi: *yozmay qo'yma, aytmay qo'ymadi, bilmay qolmaydi*. Bunday holatda, yetakchi fe'ldagi inkor ma'nosi ko'makchi fe'ldagi inkor ma'nosi orqali inkor etilib, tasdiq ma'nosini kuchaytirib ifodalaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, demak, *-ma* affiksi uch xil qo'llanilib, u yetakchi fe'lga qo'shilganda boshqa ma'noni, ko'makchi fe'lga qo'shilganda boshqa ma'noni, har ikkisiga qo'shilganda boshqa ma'noni ifodalaydi. Masalan:

Qishloqda uning nomini ham atamay qo'yishgan edi (Oybek)

Yuqoridagi ikki gapda *-ma* affiksi yetakchi fe'lga qo'shilib kelgan va harakatni inkor qilgan.

Shuncha yoshga kirib, hali bu to'g'rida sira o'ylab ko'rmagan edi

Yana o'zing bilasan, boshing bolishga yetganda peshonangga bitta urib qolmagin, deymanda!

Hali bo'lmagan ish – harakatni ifodalaydi:

Harbiy xizmatga borganingda oyingga xat yozmay qo'yma.

Ushbu gapda yetakchi fe'ldagi inkor ma'nosi ko'makchi fe'ldagi inkor ma'nosi orqali inkor etilib, tasdiq ma'nosini ifodalamoqda.

Umuman, o'zbek tilida inkorning ifodalanish usullari va inkor ifodalovchi vositalar ko'p. Lekin aynan fe'l so'z turkumining bo'lishsiz shaklini –*ma* affiksi yordamida yasashini ko'rib chiqdik.

Shuningdek, ingliz tilida ham fe'lining bo'lishsizlik shaklini hosil qilish uchun **not** inkor yuklamasidan foydalaniladi. Fe'llar ma'nosi va gapdagi vazifasiga ko'ra asosiy, yordamchi va modal fe'llarga bo'linadi. Ingliz tili grammatikasiga doir o'quv darsliklarida fe'llar vazifasiga ko'ra to'rt turga ajratilgan: asosiy, yordamchi, bog'lovchi va modal fe'llar.

Asosiy fe'llar (Notional verbs) mustaqil ma'noga ega bo'lib, gapda yakka o'zi kesim bo'lib keladi ammo **not** inkor yuklamasi bilan negative ma'no hosil qilish uchun yordamchi fe'llardan foydalanamiz. Inkor shaklini hosil qilish uchun **not** inkor yuklamasi yordamchi hamda modal fe'llarga qo'shilib keladi. Bu holatni ikki tilda qiyoslaymiz:

<i>I speak English</i>	- Men ingliz tilida gapiraman.
<i>I don't speak English</i>	- Men ingliz tilida gapirmayman
<i>She speaks English</i>	- U ingliz tilida gapiradi.
<i>She doesn't speak English</i>	- U ingli tilida gapirmaydi
<i>They worked in the garden</i>	- Ular bog'da ishladilar.
<i>They didn't work in the garden</i>	- Ular bog'da ishlamadilar.
<i>I'm watching TV</i>	- Men televizor tomosha qilyapman.
<i>I'm not watching TV</i>	- Men televizor tomosha qilmayapman.
<i>He is driving a car</i>	- U mashina haydayapti.
<i>He isn't driving a car</i>	- U mashina haydamayapti.
<i>They are running fast</i>	- Ular tez yuguryaptilar.
<i>They aren't running fast</i>	- Ular tez yugurmayaptilar.
<i>I was washing the dishes</i>	- Men idishlarni yuvayotgan edim.
<i>I wasn't washing the dishes</i>	- Men idishlarni yuvmayotgan edim.

Mana shunday tartibda ingliz tilida barcha zamonlarning inkor shaklini hosil qilishda yordamchi fe'llarga **not** inkor yuklamasi qo'shiladi.

Yordamchi fe'llar (Auxiliary verbs) mustaqil ma'noga ega bo'lmasdan, fe'ning murakkab shakllarini yasashda yordam beradi. Ular quyidagilar: **to be, to have, to do, shall (should), will (would)**:

<i>He is playing the guitar</i>	- U gitara chalyapti.
<i>I have worked in the garden</i>	- Men bog'da ishlaganman.
<i>I do not know the news</i>	- Men yangilikni bilmayman.
<i>She will come tomorrow</i>	- U ertaga keladi

Shuningdek, manbalarda bog'lovchi fe'l, ya'ni, link verbs ot-kesim yasashda bog'lovchi bo'lib keladi. Eng ko'p ishlatiladigan bog'lovchi fe'l **to be** fe'li ekanligini aytib o'tgan. Ushbu fe'ning inkor shakli **not** inkor yuklamasi orqali hosil qilinadi:

<i>He is a policeman</i>	- U politsiya hodimi
<i>He isn't a policeman</i>	- U politsiya hodimi emas
<i>The room was empty</i>	- Xona bo'sh edi.
<i>The room wasn't empty</i>	- Xona bo'sh emas edi.

D.Ganiyeva o'zining turli tizimdagi tillarga mansub fe'llarda sinkretizm va polifunksionallikka oid doktorlik dissertatsiyasida fe'llarni vazifasiga ko'ra uch turga ajratib, ularning tasdiq va inkor ko'rsatkichlarini ham alohida ko'rsatib o'tgan [6, 128].

Modal fe'llar (Modal verbs) fe'ning asosiy shakli (infinitive) bilan birga qo'llanadi va asosiy fe'l ifodalagan ish-harakatning sodir bo'lish **imkoniyatini, ehtimolligini, zaruratini, xohishni** bildiradi. Ularga **can, may, must, ought to, need** kiradi. Modal fe'llar fe'ning asosiy shakli bilan gapda qo'shma fe'l-kesim bo'lib keladi:

<i>He can speak English</i>	- U ingliz tilida gapira oladi.
<i>You may go to the cinema</i>	- Siz kinoteatrga borishingiz mumkin.
<i>We ought to protect the environment</i>	- Biz tabiatni himoya qilishimiz kerak.
<i>She needn't wash the dishes</i>	- U idishlarni yuvmasa ham bo'ladi.

XULOSA

Xullas, o'zbek tilidagi inkor ma'nosini ifodalovchi –*ma* affiksi hamda uning ingliz tilidagi ekvivalenti **not** yuklamasi inkor anglatuvchi shakllar bilan ma'nodoshlik, turli ma'no ifodasi uchun

TILSHUNOSLIK

shakldoshlik hosil qiladi. Ingliz tilida esa fe'lining inkor shakllari aynan zamon shakllarining inkor shaklini hosil qilishda **not** inkor yuklamasi eng ko'p qo'llaniluvchi vositadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ҳожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973.
2. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
3. Элтазаров Ж. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
4. Declerck R. A. Comprehensive Descriptive Grammar of English. – Tokyo: Kaitakusha, 1991 (e-version).
5. Жалолова Ш. Инглиз ва ўзбек тилларида феъл турларининг чоғиштира тадқиқи: Филол. фанлари бўй. фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019.
6. Ганиева Д.А Турли тизимдаги тилларга мансуб феълларда синкретизм ва полифункционаллик: Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Фарғона, 2022.